



MUHANDISLIK TERMINOLOGIYASINING O'ZBEK LUG'ATCHILIGIDAGI
O'RNI

Ibragimova Asila Elboboyevna

Axborot texnologiyalari universiteti

Lingvistika o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek tili leksikasida muhandislik terminologiyasining shallanishi va bugungi kunda uning ahamiyati haqida. "Muhandislik" atamasi insoniyat tafakkurining chuqur qatlamlaridan o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, u nafaqat texnik faoliyat, balki madaniy, ilmiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida shakllangan.*

Kalit so'zlar: *muhandislik, termin, o'zbek tili, terminologiya, til.*

Kirish. Har bir tilning terminologiyasi ijtimoiy jamiyatning barcha kasbiy faoliyat sohalariga oid maxsus leksikani o'z ichiga oladi. Bu xususiyat o'zbek tili terminologiyasida ham to'liq namoyon bo'ladi. Terminologiya o'ziga xos qonuniyatlar asosida shakllanadi, bunda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holati va taraqqiyoti muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir millatning turmush tarzi, iqtisodiyoti, madaniyati va ta'lim tizimi turlicha bo'lib, tilning rivojlanishi ham shunga mos ravishda o'ziga xos yo'nalishda kechadi. Qisqacha aytganda, terminologiya millatning o'tmishi va bugunini aks ettiruvchi muhim ko'zgulardan biridir [1]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bundan tashqari o'zbek tili leksikasining terminologik muammolari bo'yicha mahalliy va xorijlik terminshunos olimlar: R. Doniyorov, X. Dadaboyev, I.J. Yuldashev, O.S. Ahmedov, Sh.G. Jabbarova, V.Q. To'ychiyev, H.E. Yodgorov, G.Yo. G'ulomova, R.H. Shirinova, O.M. Po'latova, I.X. Pardaeva, M.S. Akhatova, R.S. Nuritdinova, Z. Mirakhmedova, Sh.I. Isakova, Ch.S. Abdullahova, D.F. Nurmuhammedova, S.X. Nurmatova, I.X. Sodikova, A. Kasimova, Z.V. Solovyeva, G.A. Sergeeva, L.V. Klimenko va boshqalar tomonidan nomzodlik va doktorlik ishlar amalga oshirilgan.[2,3,4]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur ishlarda huquqshunoslik, zargarlik, yog'ochsozlik, musiqashunoslik, kitobatchilik, anatomiya, onomastika, iqtisodiyot, soliq va bojxona, yo'lsozlik, ekologiya singari qator sohalarning terminologik tizimlari lingvistik nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Ularning aksariyatida, asosan, turkiy tillararo munosabat, o'zlashgan qatlam tabiati, shuningdek, o'zbek va rus tili leksikasiga xos bo'lgan terminlar tahlilga tortilgan[1]

Har bir milliy tilda o'ziga xos terminologik tizimlar mavjudligi ma'lum. Terminshunoslik bugungi kunda o'zbek tilshunosligida jadal rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida tan olinadi. XX asrning 60-yillaridan boshlab o'zbek tilining turli terminologik tizimlarini o'rganish keng ommalasha boshladi.



Muhandislik sohasidagi terminlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, shu sohada xos terminologik qatlamlarning shakllanishi fan va texnologiya taraqqiyoti, amaliyotdagi yangi ehtiyojlar va ilmiy yondashuvlarning ta'siriga bog'liq. Har bir yangi innovatsiya va texnik yutuq o'ziga xos terminlar, atamalar va tushunchalar tizimini vujudga keltirib, sohaning ilmiy hamda amaliy ahamiyatini oshiradi.

Shu ma'noda "Terminologik tizimning o'ziga xos jihatlari, uning tarkibiy bog'liqligi lingvistik omillar asosida so'z va so'z birikmalarining yasallishidagi modellarda aniq va ravshan aks etadi"[5:186]

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbek tilidagi muhandislik terminologiyasining rivojlanishi uzoq tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, uning shakllanishi tilning tabiiy rivojlanishi, boshqa tillar bilan aloqadorlik darajasi hamda ilm-fan va texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog'langan. Terminologik tizim, xususan, arab, fors, rus, ingliz va boshqa yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar hisobiga yaxlitlanib, boyigan. Har bir davr o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va madaniy xususiyatlarga ko'ra o'zlashuv manbalarini shakllantirgan.

Ayniqsa ta'kidlash joizki, muhandislik terminologik tizimi boshqa sohalarga nisbatan barqarorligi va izchil rivojlanishi bilan alohida ajralib turadi. Bu tizim zamonaviy ilm-fan va texnologiyalardagi yangiliklar, innovatsiyalar hamda amaliy ehtiyojlarga mos ravishda o'zgaruvchan, ammo mustahkam asosga ega bo'lib, muhandislik amaliyotida aniq, to'liq va samarali tushunchalar shakllantirishda davom etmoqda.

Umuman olganda, muhandislik terminologiyasining shakllanishi tilshunoslik bilan cheklanmaydigan, balki tarix, sivilizatsiya, iqtisod va madaniyat kabi ko'p qirrali omillarni o'z ichiga olgan jarayondir. Til nafaqat vosita, balki bilim, qadriyatlar va tafakkur turlarining aks etishi sifatida xizmat qiladi. Shunday ekan, terminologik o'zlashtirish jarayonini tahlil qilishda ularning lingvistik jihatlari bilan birga ijtimoiy va madaniy ildizlarini ham chuqur ko'rib chiqish zarur.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ya'ni, muhandislik sohasiga oid terminlar fan sohasining turli bo'limlarida turlicha shakllarda namoyon bo'lib, tilga yangi mazmun va mohiyat olib kiruvchi so'zlarning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Muhandislik terminologiyasi yurtimizda qadimiy ildizlarga ega bo'lsa-da, hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli, soha atamalarini keng qamrovli tadqiq va tahlil qilish bugungi tilshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biridir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xudoyberdiyeva S.H. O'zbek marketing terminologiyasi: Filol. fanl. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2022. – 136 b.
2. Doniyorov R., Ramazonova L. Ijtimoiy-siyosiy atamalarning Ruscha-o'zbekcha qisqacha lug'ati. O'zRFA Tilshunoslik instituti. – Toshkent: Fan, – 1994.
3. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв. –Toshkent: Yozuvchi. 1991.
4. Yo'ldashev I.J. O'zbek kitobchilik teminologiyasi; shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish. – Toshkent: Fan.
5. Nasirova, S., Kholiqov, M., Artiqov, A., Isakov, A., & Isroilova, L. (2025, February). Finding the optimal number of quasi-layers when calculating the ore flotation process. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3268, No. 1, p. 030015). AIP Publishing LLC.
6. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – Москва, 1967. – 322 с.